



TARAQKIYET TALJIKOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-24, (December) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

ABDULLAYEV Zohidjon Tolibjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi

1-kurs magistranti

AHMAD DONISH ASARLARIDA TURKISTON TARIXINING YORITILISHI VA TARIXIY MANBASHUNOSLIGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi vakillarining hayoti, faoliyati va boshqaruv usullari haqida, Buxoro amirligining XIX asr ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti tarixi, Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi, yengilish sabablari, mang'itlar vakillarining davlat boshqaruvidagi kamchiliklari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Jadid, Ahmad kalla, Astronomiya, Donish, Amir Doniyol, Amir Shohmurod, Qushbegi, Qozikalon, Kogon.

ANNOTATION

This article describes the life, activities and management methods of the representatives of the Mangit dynasty that ruled the Bukhara Emirate, the history of the social, political, economic and spiritual life of the Bukhara Emirate in the 19th century, the annexation of the Bukhara Emirate to the Russian Empire, the reasons for the defeat, Information is given about the shortcomings of the representatives of the dogs in the state administration.

Key words: Jadid, Ahmed Kalla, Astronomy, Donish, Amir Daniyal, Amir Shahmurad, Kushbegi, Qazikalon, Kogon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны жизнь, деятельность и методы управления представителей династии Мангит, правивших Бухарским эмиратом, история общественной, политической, экономической и духовной жизни Бухарского эмирата в XIX веке, аннексия Бухарский эмират в состав Российской империи, причины поражения, Даны сведения о недостатках представителей собак в государственном управлении.

Ключевые слова: Джадид, Ахмед Калла, Астрономия, Дониш, Амир Даниял, Амир Шахмурад, Кушбеги, Казикалон, Когон.

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yurtni taraqqiy ettirish, uni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish, milliy qadriyatlar va an'analarimizni saqlab qolgan holda xalq ongini madaniy, ma'naviy va iqtisodiy jihatdan yuksaltirish g'oyalarini ilgari surgan ko'plab taraqqiyparvar xalq namoyondalari paydo bo'ldi. Ular xalq orasida bugungi zamon ilmini o'rganish zarurligi va xalq ta'limini yuksak saviyaga ko'tarish zarurligini targ'ib etdilar. Bunday taraqqiyparvar namoyandalar harakati Jadidchilik yoki Jadidizm nomini oladi.

Jadidchilik (arabcha: جديد *jadid* -yangi manosini anglatadi) -XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi.

XIX asrning 90-yillaridan O'rtasi Osiyoda keng tarqaldi [1].

Jadidchilik harakati asoschisi Qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gasprali edi. Ismoil Gasprali jadidchilik harakatini keng yoyishga harakat qiladi. "Islom azaldan ikki narsaga -ma'rifat va ibodatga tayanadi. Shuning uchun ham musulmonlar istiqomat qiladigan hamma joyda masjid va madrasa bor" -deydi Ismoil Gaspirali.

U o'z so'zini davom ettirar ekan " -Avvalgi vaqtlarda musulmon maktablari yetarli edi, ammo hozirgi paytda ular isloh etishni talab qilyapti... Shuning uchun 1884-yilda biz ta'limning yangi tizimi (usuli jadid) haqidagi masalani pishitishga kirishdik va Bog'chasaroyda maktab ochdik. Unda bolalarga yangi tovush usuli asosida savod o'rgatilar edi. Bu maktabning muvaffaqiyati boshqalarga ham dalda bo'ldi... bu usulning dovruqi hatto Turkistonning eng olis viloyatlarigacha yetib borishga sabab bo'ldi" [2].

Bu harakatlar haqiqatdan ham barcha marifatparvarlar uchun dalda bo'ldi ularning keyingi harakatlariga turtki vazifasini o'tadi. Turkiston o'lkasida ham asta-sekin jadid maktablari ochila boshladi.

Dastlabki jadid maktabi 1893-yil Buxoroda ochildi. Keyinchalik Qoqon, Toshkent va Namangan ma'rifatparvarlari ham jadid maktablarini ochishdi. Bunday jadid maktablaridan ko'plab ziyoli, ma'rifatparvar shaxslar yetishib chiqishdi. Jadidlar Turkiston o'lkasi har jihatdan taraqqiy ettirish, ularni o'z zamonasining ilmlaridan bahramand etishga, ma'rifiy jihatdan ularni yuksaltirishga intildilar. Shunday shaxslardan biri Ahmad Donish edi.

Buxoro axli o'rtasida Ahmad maxdum, Ahmad kalla nomlari bilan shuhrat qozongan Ahmad Donish 1827-yilda Buxoro shahrida mulla oilasida dunyoga keldi. Ahmadning otasi qori Nosir ilmufanga ishtiyoqi baland, o'z davrining ziyoli kishilaridan edi. Qori Nosir farzandini ham o'zi kabi Qur'on bilimdoni qilib tarbiyalaydi. Ahmad qisqa muddatda muqaddas kitobni yod oladi, lekin tili biroz tutilishi sabab qiroatxonlik qila olmaydi. Lekin Ahmad Donish shu tufayli nihoyatda kamgap bo'lib, butun mehrini ilmga, ayniqsa yozuv ilmi xattotlik san'atiga bag'ishlaydi. Chiroyli yozuv san'atini mukammal darajada egallab, kitob ko'chirish unga turli miniaturalar chizib bezash bilan shuhrat qozonadi. Aynan shu mahorati tufayli Ahmad amir Muzaffarxon saroyiga xizmatga taklif qilinadi. Keyinchalik mustaqil ravishda astronomiya, matematika, geografiya fanlarini va xorijiy tillarni o'rganadi.

Ahmad Donish shaxsan o'z davri uchun ibratli, muridlari uchun pir, ilm ahli uchun bitmas-tuganmas xazina bo'lgan. Sadriddin Ayniy takidlashicha, Ahmad maxdum ajoyib inson bo'lib, " adabiy taxallusi Donish, ilmiy taxallusi muxandis (xandasandon) lik va munajjimlik ekan" [3].

Ahmad Donish haqiqatdan ham XIX asr donishmand kishilaridan biri edi. E'tiborli tarafi shundaki boshqa bironta olim "Donish -Bilimdon kishi" laqabi bilan shuhrat qozonmagan. Turli fan sohalarida bilimdonligi tufayli Ahmad kalla, Kallali Ahmad nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Ahmad Donish amirlik tuzumida islohotlar o'tkazish zarurligi anglab yetgan va bu dasturni ishlab chiqqan dastlabki taraqqiyparvarlardan edi.

Avvallari Rossiyaga boradigan elchilarga tatar tilmochlari hamrohlik qilgan bo'lsa, endi bu vazifani Ahmad Donish o'z zimmasiga oladi. 30 yoshida U ilk marotaba Rossiyaga safar qiladi. Rossiyaga safari chog'ida Ahmad Donish Buxoro amirligi taraqqiyot sohasida Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlardan qanchalik orqada qolib ketganidan iztirob chekadi. 1857, 1869, 1873-yillarda qilgan takroriy safarlari natijasida Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy-madaniy hayot, davlatni boshqarish usullari, iqtisodiyotdagi islohotlar bilan chuqur tanishadi. Bir vaqtlar inson svilizatsiyasining asosiy makonlaridan biri bo'lgan Buxoro Sharifni qoloqlik botqog'idan chiqarish yo'llarini izlaydi [4]. Ahmad Donishning "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida XIX asrda xalqimiz ayanhli ahvolda yashaganligi, boshidan o'tkazgan qora kunlar, yurt rahbarlarining jaholat va qoloqlik botqog'iga botib ketishi, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan taraqqiy ettirish o'rniga umrini o'tab bo'lgan aqidalarga o'ralashib qolishlari oqibatida yurtni mustamlakaga aylantirilishi, tarixi bayon etiladi.

Biz jaholat deganda odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o'z vaqtida kurash olib borilmasa, o'ta og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo'yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelyapmiz, bu illat qo'l-oyog'imizda bamisoli kishan bo'lib turibdi. Bu kishandan xoli bo'lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so'z bo'lishi mumkin emas [5].

Asarda ayniqsa Amir Muzaffarxon (1860-1885) va Amir Abdulahadxon (1885-1910) davrlarining bevosita guvohi bo'lganligi uchun bu davrni batafsil bayon etilgan. Asarning 5 ta yozma nusxasi bo'lib, "Kichik tarix", "Safarnoma" kabi turli nomlarda uchraydi va asar qaysi yili yozilganligi haqidagi ma'lumot hech bir nusxada uchramaydi. Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi Abdulg'ani Mirzoyev asarda keltirilgan tarixiy tadqiqotlarga tayanib, asar Ahmad Donish umrining oxirlari, ya'ni 1895-1897 yillarda yozilgan degan xulosaga keladi.

Ahmad Donish asarni Amir Doniyolbiy davri (1758-1785) voqealari bilan boshlaydi. Amir Doniyolbiy davrida poytaxt Buxoro shahrida bo'lgan qabix ishlar, bazi madrasalarda o'qish, bazi bir masjidlarda namoz taqiqlanganligi, madrasa xujralaridan otlar uchun og'ilxona, bazan don saqlaydigan ombor sifatida foydalanilganligi, Bunday tartibsizliklarning sababi mang'itlar xonadoni vakillarining davlat ishlariga aralashuvi, beva-bechoralarning ot-ulovini tortib olganliklari, vaqf mulkidagi g'alla omborlari va ko'plab davlat mulkini o'zlashtirib talon-taroj etganliklarida edi. Amirlikdagi mansablarning ko'pi Amir Doniyolning o'g'illari tomonidan egallangan bo'lib, ular doim ham otalariga bo'ysunishmagan. Amirlikda vazirlik ishlari to'laligicha zolim va qonxo'r Davlat qushbegi qo'lida bo'lib, Qozikalon Nizomiddin ham qushbegidan qolishmas edi. Qozi Nizomiddin sayyidlar avlodidan bo'lsa ham ochiqdan-ochiq tamaki chekar, sharob ichar poraxo'r edi. Amir Doniyol qarib qolgan vaqtida davlat ishlarini tartibga keltirishga ojiz qolgan vaqtida davlat ishlarini o'g'illari, yirik amaldorlar va amirlarga topshirdi.

Amaldorlarning xalq bilan ishi yo'q edi, shariat qonun qoidalariga amal qilishmas, xalqning dod-faryodlariga bee'tibor edilar. Qarib qolgan Amir Doniyolbiy o'g'li Shohmurodga odam yuborib, davlat ishlarini uning nomidan noib sifatida boshqarishini aytishadi. Shohmurod hech kim din va davlat ishlarini tartibda solishda unga qarshilik ko'rsatmasliklari sharti bilan bu taklifga rozi bo'ladi. Otasi hayot bo'lishiga qaramasdan Shohmurod hali Buxoro taxtiga chiqmagan bo'lsada barcha amaldorlar, sayyidlar, amir-u hokimlar undan qo'rqishar, uning buyruqlarini bajarishar edi. Amir Doniyolbiy xijriy 1198 (milodiy 1785-yil) yili vafot etadi [6].

Amir Shohmurod xalq orasi "Amiri Ma'sum" "begunoh amir" nomi bilan shuhrat qozonadi. U xijriy 1163 (milodiy 1750-yili) tug'ilgan. Otasi vafotidan oldin ham davlat ishlarini boshqarardi va otasining vafotidan so'ng 1785-yili Buxoro taxtini egallaydi. Davlat ishlarini boshqarishda yangicha tartiblar o'rnatadi.

Otasi davrida katta nufuzga ega bo'lgan qozi Nizomiddinni shaxsan o'zi Buxoro Arki yonida o'ldirib, jasadini amirlik otxonasiga tashlashni buyuradi va adolat qaror topishi uchun barcha mol-mulkini talon-taroj qilishni va xalqqa tarqatishni buyuradi. Davlat qushbegi ham o'ldirilib, ichki nizolarga barham beriladi. Bir necha bor g'azo niyatida urishlar olib boriladi. Amir davlat ishlaridan qoniqish his qilib, ko'p vaqtini ibodatga va ro'za tutishga sarflaydi.

Amir juda kamtarona hayot kechirardi, qotgan non va suv bilan ro'za iftorlik qilardi. Amiri masum hech qachon shariatga ko'ra o'ziga ulamolar tomonidan belgilangan miqdordan ortiq mablag'ni davlat xazinasidan olmas edi. Haftada atigi ikki marta o'zi va oilasi uchun yog'li ovqat tayyorlatar edi. Kechalari tongga qadar ibodat qilar, so'ngra kun bo'yi kechgacha xalq arz-dodini tinglardi. Asarda Amiri Ma'sum haqida ko'plab ibratli voqealar keltiriladi. Ular biri shunday bir kuni Buxoro bozorlariga yangi shirin qovunlar olib kelinadi. Amir va uning sheriklarini shu qovundan yegisi keladi. Amir xizmatkoriga qovundan olib kelishini buyuradi, lekin amirning puli yo'q edi shunda amir boshidagi kulohini yechib shunga qanday qovun bersa shuni olib kel deydi.

Xizmatchi borib bosh kiyimni sotuvchiga beradi, sotuvchi qarasaki bosh kiyim yirtilgan va eskirib ketgan edi. Sotuvchi Amirning xislatlari haqida u kam xarj va parxezkor shaxs ekanligi eshitkandi va shunda bosh kiyim aynan Amirniki ekanligi tushunib yetadi, xizmatchiga yirik va mazali qovun beradi. Amir Shohmurod davlatni 17 yil boshqardi. Xijriy 1215 yil rajab oyining 12 kuni juma kunida (milodiy 1800-yil 30-noyabr) foniy dunyoni tark etadi [7].

Amir Haydarning podshohlik taxtiga o'tirishi xijriy 1215 yil (milodiy 1800-yil yakshanba), rajab oyining 14 da quyosh chiqqanidan uch soat keyin sodir bo'ladi. Amir Haydar xijriy 1189 yil (milodiy 1775-yil) tug'ilgan. Amir Haydar olim, taqvodor, saxovatpesha hukmdor bo'lib, 400 ta tolibi ilmga dars bergan. Behad taqvodorligi bois biron marta ham taxajjud namozini tark etmagan. Uning yetti o'g'li va sakkiz qizi bor edi.

Munajjimlar bashoratiga ko'ra uning davri notinchlik va amirlar bilan kelishmovchiliklar davriga to'g'ri keladi. Haqiqatdan ham uning davrida ko'plab amirlar va yirik amaldorlar unga qarshi adovatda va muxolifatda edilar. Amir Haydar yoshlik davridayoq din ilmini chuqur egallaydi, Qur'oni Karimni yod oladi, dunyoviy lazzatlardan voz kechib, kunora ro'za tutardi, iftorda ham ko'p yemasdi. Hukmronligi davrida ichki g'animlarni bartaraf etish, harbiy yurishlar davrida ham dars berish, ulamo bilan suhbatlar, olimlar bilan munozara qilishga ham vaqt topardi. Hattoki boshqa hududlardan tolibi ilmlar Buxoroga kelib bunday munozaralarda ishtirok etib, ta'lim olishardi. Amirning davlatda yurg'izayotgan siyosati amirlarni jahlini chiqarib, g'ashiga tegardi. Shuning uchun ular turli viloyatlarda isyon ko'tarib, podshohdan ortiqcha maosh va mukofotlar olardilar. Chunki hamma yurtda tinchlik hukm surgan paytda hukmdor masjid va madrasadan tashqariga chiqmasdi, ulamolardan boshqalarga iltifot ko'rsatmasdi.

O'z tabiatiga muvofiq amir o'zining ko'plab xotinlari bo'lishini istardi, garchi maishat va taomdan o'zini tiysada ko'p marotaba uylanardi. Bu uning hissiyotidan emas, balki tabiatidan kelib chiqardi. Amir Haydar 52 yil yashadi, davlatni 27 yil boshqardi. Hijriy 1242 yil (milodiy 1826-yil) rabi ul-avval oyining payshanba kuni tushdan yaqin vafot etadi. Undan keyin taxtga amirning katta o'g'li Husayn chiqadi. U kuch-g'ayratli, ilmi ko'p fanlarni puxta biladigan hukmdor edi. She'r yozardi, kimyo, tibbiyot ilmidan xabardor edi.

Husaynning hukmronligi uzoq davom etmadi. Husayn 30 yil umr ko'rdi, taxtga o'tirganidan keyin 2 oy 14 kun o'tgach vafot etdi. Undan keyin ulamolalar jumod ul-avval oyining 23 da (1826-yil 23-dekabr) quyosh chiqqanidan bir soat o'tgach taxtga Amir Haydarning ikkinchi o'g'li Umar o'tiradi. Amir Umar hijriy 1224 yil (milodiy 1810-yil 19-dekabr) zulqada oyining 11 da payshanba kuni tug'ilgan. U tabiatan ayshu-ishratga berilgan, fisqu-fasodga moyil shaxs edi. Tun-u kun maishat, musiqa, o'yin-kulgu, ichimlikka berilib doim mast-u behush yurardi. Uning be'parvoligi shu darajaga borib yetdiki, hukmdor bo'laturib, ukasi Nasrulloning Samarqanddan kelib Buxoroni qamal qilganidan xabarsiz qoladi. Shahar tashqarisida to'p va miltiq o'qlarining ovozlari kelganida uning yaqinlari "Ovchilaringiz shahar tashqarisida nishonga olish mashqini qilmoqdalar, siz xotirjam bo'ling" deyishganida amir bunga ishonadi.

Amir Umar ukasi Nasrulloning askarlari shahar darvozasini sindirib, Arkni egallab saroyga kirganidagina hujum haqida bilib oladi. Bu vaqtda amir arfa, doira va nog'orada chalinayotgan kuyni eshitish bilan band edi. Amir Umarni ulamolardan biri qutqarib qoladi unga ayollar paranjisini kiydirib yashirincha shahardan tashqariga chiqarib yuboradi. Amir Umar 4 oydan kamroq hukmronlik qildi, Buxorodan qochib boshi oqqa tomonga ketdi.

Amir Nasrullo amirlik taxtiga xijriy 1242 yil (milodiy 1828-yil) ramazon oyining payshanba kuni o'tirdi. Amir xijriy 1221 yil (milodiy 1806-yil 1-iyun) rabi ul-avval oyining 13 da tug'ilgan edi. Nasrullo mustabid, shafqatsiz, qati'yatli, ishbilarmon podsho edi. Amir Nasrullo taxtga o'tirganidan keyin mamlakatdagi g'alayonlar, isyonlar kamayadi, deyarli barham topadi. Otasi davrida muxolifatda bo'lgan viloyatlarni ayovsiz jazolaydi. 1834-1835 yillardan boshlab din va davlat ishlarida tanglik kuzatila boshladi. Xususan, amir sipohlar mulkini musodara qildi, ba'zi jarimalar belgiladi. Bunday jarimalarni to'lashga ko'pchilik qarshi chiqadi.

Natijada soliq yig'uvchi amaldorlar kuch ishlata boshlaydilar. Ulamolar ham amirning fel-atvoridan hayiqib, unga xushomad qilar, yengil fatvolar chiqaradilar. Nimaiki amir xohishiga tog'ri kelmasa uni shariatga xilof, agar to'g'ri kelsa shariatga muvofiq deb bilardilar. Lashkarining ham, ulamoning ham amir Nasrulloga shariat haqiqati haqida gapirishga haddi sig'mas edi. Kimki uning rayiga qarshi chiqsa, tez orada jinoyatchiga chiqarilar, mol-mulki musodara qilinib, o'zini haydab yuborishga amr etilardi. Amir Nasrulloning Muzaffardan boshqa farzandi yo'q edi. Nasrullo o'g'li qalbida g'arazgo'ylik va shafqatsizlikni ko'rdi va shuning uchun o'g'lini emas bir nabirasini valiahd deb e'lon qildi. Bir necha amirlariga shu nabirasini taxtga o'tkazishlarini vasiyat qiladi. Amir Nasrullo 56 yil yashadi 35 yil hukmronlik qildi, xijriy 1277 yil (milodiy 1860-yil) me'zon oyida vafot etadi.

Amir Nasrullodan so'ng ikki xil toifa vakillari o'rtasida kurash boshlanadi. Birinchi toifa vasiyat tarafdorlari bo'lib, ular nabirani qonuniy valiahdni taxtga chiqarish tarafdorlari edi. Ikkinchi toifa esa "davlat qadimdan ota meros" - deb amirning o'g'li Amir Muzaffarni taxtga chiqarmoqchi edilar. Natijada ikkinchi toifa tarafdorlari g'olib chiqib Amir Muzaffarni Karmanadan chaqirib, xijriy 1227 yil rabi ul-avval oyining yettinchisida (1860-yil 23-sentabr) taxtga chiqardilar.

Amir Muzaffar taxtda mustahkamlanib olgach, vasiyat tarafdorlarini qatl ettirdi. Otasi davridagi yirik ayonlar, amirlar va vazirlarni ishdan olib, mol-mulkini musodara etdi. Hokimiyat tepasiga o'z yaqinlarini va tarafdorlarini bo'lgan karmanalik razil kishilarni o'tkazdi. Ularning barchasi noshud va kaltafahm kishilar bo'lib, Amir Nasrullo ularni o'z lavozimlaridan bo'shatib qadrimizga yetsin deya Karmanaga o'g'li oldiga yuborilgan amaldorlar edi. Ular o'zlari kutmagan vaziyatda ularga katta unvonlar beriladi, natijada ular mahalliy aholiga zug'im o'tkazadilar, ularga turli soliqlar solishadi, hech kim nazar pisand qilmaydilar. Bu esa mahalliy aholi o'rtasida karmanalik shaxslarga nisbatan adovat qo'zg'atadi.

Amir Muzaffar hukmronligi dastlabki yillarida otasidan qolgan davlatga tayanib, Hisor va Qo'qonga yurish qiladi, mahalliy aholiga jabr yetkaziladi. Zafarli yurishlaridan ruhlangan amirga "Firavn dimog'dorligi" uradi, dunyoda o'zidan boshqani tan olmaydigan, shariat ko'rsatmalarini o'z hohishiga qarab o'zgartiradigan darajaga yetadi.

Odamlar arziyas gunohi uchun ham qamalardi, kishi chaqa tanga o'g'irlasa ham o'ldirilardi, qamoqning muddati uch yildan yetti yilgacha edi. Turmalar to'lganda mahbuslar guruh-guruh qilib chiqarilib, ommaviy qatl qilinardi. Ko'plab yirik amaldorlarning mol-mulki musodara qilinib, aksariyati qatl qilinardi. Qabih kishilar va past toifadagilar masalan qullar xalq boshiga ko'tarilgandi. Ular davlat ishlariga no'noq, g'ayratsiz, nodon kishilar edi. Hatto ba'zi askarlar qullarga xizmatni qilishni o'zlariga or deb bilib, xizmatdan ketib qolishlarigacha bordi. Bir askarga beriladigan maosh to'rt askarga beriladigan bo'ldi, bir sarkardaga beriladigan tanho ikki sarkardaga berilardi. Bu omillar qo'shinni zaiflashishiga olib keldi.

Amir Muzaffarxon davrda vazirlik Muhammadshoh qushbegi qo'lida edi. Bu shaxs savodsiz, kaltafahm va beaql kishi edi. Ma'lumotlarni eplab amirga ham yetkaza olmas edi. Uning oldida hech kim davlat foydasiga biron narsa deyishga jur'at etaolmas edi. Aslida davlat boshqaruvi ravnaqi vazirning ziyrakligi, qat'iyatliligi, uzoqni ko'ra olishi, mulohazaliligiga bog'liq. Afsuski Muhammadshoh qushbegi unday fazilatlar egasi emas edi. Shuning uchun davlat ishlari to'liq inqirozga yuz tutdi.

Ruslar Toshkentni qamal qilish bilan band bo'lgan bir paytda Amir Muzaffar Qoqonga yurish qilishni ixtiyor etdi, ba'zi diyonatli maslahatchilar amirga Qoqonga yurish qilish ahdidan qaytib, Toshkentga qarab yurilsa, qamaldagi musulmonlarga yordam qilinsa barcha uchun xayrli ish bo'lishi aytib maslahat berganlarida ham amirni fikridan qaytarib bo'lmadi. Amir Qo'qonga yurish qildi O'zgangacha egallab, u yerlarni taladi va tez ortiga qaytdi. Toshkentga yurish oldidan Ahmad Donish bir voqeani eslab o'tadi. Ahmad Donish xizmat yuzasidan saroyga boradi, saroyda Amir Muzaffar o'z ayonlari bilan kengash o'tkazayotkan edi. Majlisdan so'ng, bir vazir tashqariga chiqadi va Ahmad Donish vazirdan kengash muddosini so'raydi. Vazir ba'zi lashkarboshilar Toshkentga yurish qilishni afzal ko'rganligi, lekin amir bunga rozi bo'lmaganligini aytadi.

Amir bu taklifga javoban: “Toshkent ustiga yurib uni egallagan shaxs rus qo‘shini sarkardasidur, bu navkarga qarshi chiqish men uchun or va uyatdir, agar men otga minsam, to‘ppa to‘g‘ri Moskov ustiga boraman.” deb javob beradi. Amir bu gaplarni tabiatan nodonligi, kaltabinligi tufayli Rossiya imperiyasini ham Movarounnahr davlatlaridek deb bilib, ikki davlat o‘rtasidagi farqni anglay olmaganidan aytgan.

1866-yil 8-mayda Yerjar manzilida (hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyati hududi) bo‘lgan jangda Buxoro askarlari yengilgan va orqaga chekingan. Ushbu jangda amir Muzaffar o‘zining harbiy layoqatsizligini namoyon qildi. Podsho Rossiyasi qo‘shinlari 1866-yil 24-mayda Xo‘jand shahri va Nav qal‘asini, keyin esa 2-oktyabrda O‘ratepani egallaydi.

Toshkent shahri egallaganidan so‘ng, Buxoro davlatining asosiy shaharlaridan bir bo‘lgan Samarqandni egallash uchun avval kirish darvozasi bo‘lgan Jizzaxni egallash kerak edi. Jizzaxni mudofaa qilish uchun 100 ming tanga sarfladilar, ko‘p sonli askarlar yubordilar, mudofaa devorini qurdilar. Qo‘shinga rahbarlik qilish uchun urush ovozini ham eshitmagan, jang maydonini ko‘rmagan amir g‘ulomlaridan bir Yoqubbek qushbegi lashkarboshi etib tayinlanadi. Eng oddiy askar ham uning lashkarboshi etib tayinlanganidan or qilar edi, 18-oktabr kuni Jizzax egallandi. Amir Muzaffarxon davri haqida Ahmad Donish haqida ancha keng ma‘lumotlar berilgan lekin barcha ma‘lumotlarni ushbu maqolada aks ettirish imkoni yo‘q. Shuning uchun asosiy ma‘lumotlar keltirilib o‘tilgan. Keng o‘qib o‘rganish uchun Ahmad Donish asarlarini o‘qish tavsiya etiladi.

1885-yil juma kuni, safar oyining to‘rtinchi kuni ertalab valiahd amir Abdulahadni Karmanadan Buxoro Arkiga keltirib, muborakbod etdilar. Amir Abdulahad ham otasi davridagi tuzumni ma‘qul topdi. Ilm ishlarini qozikalonga, harbiy sarkardalar va sipohlarni ta‘yinlash, bo‘shatishni otasining quli bo‘lgan Durbinbiyga topshiradi. Buxoro boshqaruvi johil Shohmirzo inoqqa o‘tadi. Amir Abdulahad davrida rus amaldorlarining davlat ishlariga aralashuvi kuchayadi, hech kim ularga qarshi chiqishga jur‘at etolmaydi. Bu davrda Mamajug‘rot tepaliklari etagida joylashgan Kogon qishlog‘i temiryo‘l o‘tkazilishi, bir nechta fabrika va korxonalarining qurilishi munosabati bilan bag‘oyat kengayib ketdi. Kogonda rus ma‘muriyati, soldatlar, savdogarlar va oddiy aholi yashar edi. Kogondan Buxoroga temiryo‘l o‘tkazildi, shu tariqa Buxoro Rossiya to‘laligicha tobe bo‘lib qoldi.

Ahmad Donishning “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarida bundanda ziyod ma‘lumotlar keltirilgan. Afsuski butun boshli kitobni bir maqola sig‘dirishning iloji yuq. Lekin agar o‘quvchilar ko‘proq ma‘lumotlar olishni istasa va voqealarning keyingi rivojiga qiziqsa, albatta Ahmad Donishning ushbu asarini o‘qib chiqishlarini maslahat beraman. Zero asosiy maqsadimiz ham shu. Asarda Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang‘itlar xonadoni vakillari hayoti, faoliyati va boshqaruv tarzi haqida ma‘lumotlar beriladi. Biz bu asarni o‘qir ekanmiz XIX asr Turkistonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayoti tarixini o‘sha zamon guvohi bo‘lgan Ahmad Donish asarlari orqali o‘rganamiz. O‘sha davrning asl tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblangan bu asar “Adolat va haqiqat izlagan kelajak avlod mening yozganlarimga nazar tashlasa, albatta, faqirning so‘zlari haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilib, menga rahmat aytadilar”. deya yakunlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. -T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2019.b. 156.
2. Ismoil Gaspirali Dorur-rohat musulmonlari –T.; Akademnashr.2022.-b.4
3. Аҳмад Дониш Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи Т.;Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014. б.144
4. Саййид Мансур Олимий Бухоро Туркистон бешиги Бухоро нашриёти, 2004. б.129
5. Ражабов К. Хасанов Ф. Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олиниши (XIX аср ўрталари-1917 йил февраль). ЎзМЭ. 12-жилд.
6. Наимов Н. Бухоро жадидлари Т.;Фан 2000. б.65
7. Rahmonov T. , Orziyev M. Ikki tarixiy siymo: Ahmad Donish va Sadriddin Ayniy.Buxoro: Durdona nashriyoti, 2015. b.82.